

MAVZU. ODOB VA ETIKET SABOQLARI

Reja.

1. Odob-axloq va etiket tushunchasi
2. Umumiy (ijtimoiy) etiket qoidalar
3. Maxsus etiket turlari
4. Amaliy mashqlar va xulosa

Maqsad.

O'quvchilarga kundalik hayotda va jamoat joylarida amal qilinadigan odob-axloq va etiket qoidalar haqida tushuncha berish.

Xushmuomalalik, hurmat, diqqat bilan tinglash kabi muhim ko'nikmalarni shakllantirish.

Amaliy mashqlar orqali odobli muomala qilishni odatga aylantirish.

Vazifalari.

1. Odob va etiket tushunchalarini izohlash.
2. Turli vaziyatlarda amal qilinadigan asosiy etiket qoidalarini o'rgatish.
3. Amaliy mashqlar orqali o'quvchilarda xulqiy odatlarni mustahkamlash.

Bolalar uchun odob-axloq va etika qoidalar — bu sehrli qoidalar bo'lib, ular seni tarbiyali, odobli va do'stona inson bo'lishingga yordam beradi.

Bu qoidalarni bilgan holda, sen do'stlaring, ota-onang, yaqinlaring va hatto begona insonlar bilan ham oson va erkin muloqot qila olasan.

Xushmuomalalik — bu insonning boshqalarga nisbatan hurmatli, muloyim va odobli muomala qilishi demakdir. Masalan, salomlashish, "iltimos" va "rahmat" deyish, navbatga rioya qilish, boshqalarni diqqat bilan tinglash — bularning barchasi xushmuomalalik belgisidir.

Etiket — bu odamlarning bir-biri bilan qanday madaniyatli va to'g'ri munosabatda bo'lishi kerakligini ko'rsatib beruvchi qoidalar to'plamidir. Etiket deganda biz salomlashish, xayrlashish, suhbatdoshni diqqat bilan tinglash, boshqalarga hurmat bilan muomala qilish, navbat kutish, toza va ozoda yurish

kabi odob-axloq qoidalarini tushunamiz. U oilada, ko'chada, maktabda, mehmonlikda yoki jamoat joylarida qanday o'zini tutish kerakligini o'rgatadi.

Oddiy so'zlar bilan aytganda, etiket — bu qarindoshlar va do'stlar bilan qanday muloqot qilish, jamoat joylarida va uyda o'zini qanday tutish kerakligi haqidagi qoidalaridir. E'tibor ko'rsatish va hurmat izhor qilishning ham belgilangan odoblari bor.

1. Umumiy (ijtimoiy) etiket — odamlarning kundalik hayotdagi va jamoat joylaridagi xatti-harakatlarini, muloqoti va o'zaro munosabatlarini tartibga soladi:

Salomlashish va xayrlashish: “Assalomu alaykum”, “Xayr” kabi xushmuomalalik so'zlarini ishlatish.

Hurmat bilan murojaat qilish: notanish yoki katta yoshdagilarga “Siz” deb murojaat qilish.

Xushmuomalalik iboralari: “Iltimos”, “Rahmat”, “Kechirasiz”, “Marhamat”.

Suhbatdoshni tinglay bilish: gapini bo'lmaslik, ko'z bilan aloqa saqlash.

Qo'pol yoki haqoratli so'zlardan saqlanish.

Shaxsiy hayotga doir ma'lumotlarni oshkor qilmaslik — maxfiylikni saqlash.

Muloqotda masofa saqlash.

Ishbilarmonlik muzokaralarida odob: fikrlarni muloyim ifoda qilish, boshqalar fikriga hurmat bilan yondashish.

2. Ishbilarmonlik etiketi — bu kasbiy muhitda, ya'ni hamkasblar, hamkorlar va mijozlar o'rtasida qabul qilingan xulq-atvor qoidalaridir.

Kiyim-bosh qoidasi (dress-kod): tashkilotda belgilangan kiyinish uslubiga rioya qilish.

Aniqlik va vaqtdan unumli foydalanish: uchrashuvlarga o'z vaqtida kelish, belgilangan muddatlarga amal qilish.

Rasmiy murojaat: familiyalar va lavozimlar orqali murojaat qilish, rasmiy ohangda gapirish.

Yozishma etiketi: xatlar va xabarlarini aniqlik, qisqalik va hurmat bilan boshlash hamda yakunlash.

Muloqotdagi xushmuomalalik: o'z fikrini muloyim ifodalash, boshqalarning fikriga hurmat bilan qarash.

3. Mehmonxona etiketi — bu mehmon kutib olish yoki o'zi mehmon bo'lib borishda amal qilinadigan xulq-atvor qoidalaridir.

Asosiy qoidalar:

1. Belgilangan vaqtda kelish, ortiqcha vaqt qolib ketmaslik.
2. Uy egalariga kichik sovg'a olib kelish (agar bu odat tusiga kirgan bo'lsa).
3. Uy egasi va boshqa mehmonlar bilan xushmuomalalik bilan muloqot qilish.
4. Taklif etilgan taom yoki ichimlikni qo'pol tarzda rad etmaslik.
5. Uydan chiqishda uy egalariga albatta minnatdorchilik bildirish.

Amaliy mashqlar:

1. Har kuni uch kishiga "iltimos" va "rahmat" so'zlarini ishlatib, xushmuomalalik ko'rsatish.
2. Salomlashishda ovozni ravon, yuzni ochiq tutib, ko'z bilan aloqa qilishni mashq qilish.
3. Suhbatdosh gapirayotganda gapini bo'lmasdan, oxirigacha tinglash.
4. Navbat kutish holatlarida odobni saqlash va boshqalarga joy berish.
5. Kun davomida qo'pol so'z ishlatmaslik va o'zini nazorat qilish.
6. Kechqurun kun davomida bajargan odob qoidalarini kundalikda yozib, o'ziga baho berish.